

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA  
ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot  
2023-yil yanvar*




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-fevral holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 983** tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan **1 832** taga oshgan (o'sish sur'ati **115,1** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **47** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 936** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **1 489,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **86,5** % ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **349,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **92,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 139,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **84,8** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **168,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **89,5** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %
Samarqand viloyati	<b>1 489,7</b>	<b>86,5</b>	<b>349,8</b>	<b>92,5</b>	<b>1 139,9</b>	<b>84,8</b>
Samarqand sh.	586,8	86,4	297,9	82,5	288,9	91,0
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	84,2	78,7	0,105	104,7	84,1	78,7
Oqdaryo	39,5	88,3	0,490	97,7	39,0	88,2
Bulung'ur	59,7	84,5	2,880	125,4	56,9	83,1
Jomboy	52,4	84,6	4,814	8,9 m.	47,5	77,5
Ishtixon	50,2	86,9	0,608	122,9	49,6	86,6
Kattaqo'rg'on	59,6	84,9	0,736	90,7	58,9	84,9
Qo'shrabot	19,7	79,6	0,386	90,4	19,3	79,5
Narpay	53,6	84,9	0,643	91,6	52,9	84,8
Payariq	57,0	86,5	0,637	82,8	56,4	86,5
Pastdarg'om	74,9	91,9	5,912	166,1	69,0	88,5
Paxtachi	37,7	85,1	0,642	99,6	37,0	84,9
Samarqand	96,7	97,7	29,354	13,6 m.	67,4	69,5
Nurobod	20,7	70,9	0,434	100,3	20,3	70,5
Urgut	148,3	89,0	3,277	113,6	145,0	88,6
Toyloq	48,7	86,9	1,017	175,9	47,7	85,9

2023-yilning yanvar oyida 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Samarqand shahrida (**86,4 %**) va Samarqand (**97,7 %**), Pastdarg'om (**91,9 %**), Urgut (**89,0 %**) va Oqdaryo (**88,3 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,  
*yanvar, mlrd. so'm*




So'nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **110,5 %** ni yoki **1 448,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foiz *2022-yil, 2023-yil yanvar oyi*



2023-yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 86,5 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, foiz



- |                 |                     |             |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo   |
| ■ Bulung'ur     | ■ Jomboy            | ■ Ishtixon  |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot        | ■ Narpay    |
| ■ Payariq       | ■ Paxtachi          | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om   | ■ Nurobod           | ■ Urgut     |
| ■ Toyloq        |                     |             |

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **39,4 %** bilan **586,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qo'shrabot tumani **1,3 %** bilan **19,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 139,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **15,2** % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **76,5** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **92,5** % ni va **349,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **23,5** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foiz



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**98,9 %**), Kattaqo'rg'on (**98,8 %**), Narpay (**98,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **23,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**50,8 %**), Samarqand (**30,3 %**), Jomboy (**9,2 %**), Pastdarg'om (**7,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foiz
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>365,6</b>	<b>84,7</b>
Samarqand sh.	1 034,0	84,8
Kattaqo'rg'on sh.	907,0	77,3
tumanlar:		
Oqdaryo	236,3	86,3
Bulung'ur	305,8	82,8
Jomboy	286,8	82,5
Ishtixon	187,8	84,9
Kattaqo'rg'on	209,2	83,3
Qo'shrabot	142,9	78,0
Narpay	242,1	83,4
Payariq	216,3	84,5
Pastdarg'om	201,9	90,0
Paxtachi	253,0	84,0
Samarqand	366,0	95,7
Nurobod	131,2	69,5
Urgut	275,1	86,8
Toyloq	228,4	84,7


2023-yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **365,6** ming. so'mni (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **84,7** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 034,0** ming. so'm), Kattaqo'rg'on (**907,0** ming. so'm) va Samarqand (**366,0** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **168,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **89,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **38,1** mlrd. so'mni (**78,4 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **130,7** mlrd. so'mni (**95,1 %**) tashkil etdi.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm




## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foiz



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>168,8</b>	<b>89,5</b>	<b>38,1</b>	<b>75,3</b>	<b>130,7</b>	<b>94,7</b>
Samarqand sh.	7,0	62,6	6,4	58,8	0,6	193,6
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	26,1	69,4	5,6	2,2 m.	20,4	58,3
Oqdaryo	11,8	105,7	0,6	35,3	11,2	117,2
Bulung'ur	13,3	86,6	2,5	56,4	10,8	98,6
Jomboy	12,1	99,5	4,4	76,3	7,7	120,5
Ishtixon	13,2	103,8	3,6	2,8 m.	9,6	84,2
Kattaqo'rg'on	14,2	85,5	3,2	65,5	11,0	94,0
Qo'shrabot	7,3	75,5	0,6	35,5	6,8	83,1
Narpay	2,2	114,1	1,6	103,3	0,6	158,0
Payariq	14,6	89,3	1,9	55,0	12,7	98,4
Pastdarg'om	9,4	141,7	0,2	10,1	9,2	195,9
Paxtachi	7,3	90,4	1,3	66,0	6,0	98,6
Samarqand	4,2	106,3	0,4	85,9	3,8	108,7
Nurobod	4,3	48,3	0,7	21,2	3,6	62,9
Urgut	10,8	115,5	3,9	121,5	6,9	112,3
Toyloq	11,1	156,5	1,3	66,7	9,8	190,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.











2023-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **38,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**15,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrld. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>15,6</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>2,9</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>4,5</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>2,4</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>4,5</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>1,6</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>1,7</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>1,0</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>2,0</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>1,7</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>0,2</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>0,0</b>



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **130,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **108,2** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar **16,0** mlrd. so‘mni, otlar **5,8** mlrd. so‘mni, parrandalar **0,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	63,2
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	30,0
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	15,0
	Qo‘ylar	12,7
	Otlar	5,8
	Echkilar	3,3
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,2
	Tovuqlar	0,5
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,0

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **3 879** tani tashkil etib, 2022-yil 1-fevral holatiga nisbatan **339** taga oshgan va o'sish sur'ati **109,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **8** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 871** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **44,1** mlrd. so'mni (**85,0 %** ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **15,0 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **60,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>44,1</b>	<b>85,0</b>	<b>17,5</b>	<b>86,9</b>	<b>26,6</b>	<b>83,8</b>
Samarqand sh.	22,4	88,2	6,2	95,1	16,2	85,8
Kattaqo'rg'on sh.	0,9	84,2	-	-	0,9	84,2
tumanlar:						
Oqdaryo	0,2	81,7	-	-	0,2	81,7
Bulung'ur	1,3	102,6	0,8	120,4	0,5	81,8
Jomboy	0,8	81,6	-	-	0,8	81,6
Ishtixon	0,3	82,7	-	-	0,3	82,7
Kattaqo'rg'on	0,6	80,8	-	-	0,6	80,8
Qo'shrabot	0,3	75,6	-	-	0,3	75,6
Narpay	0,4	78,7	-	-	0,4	78,7
Payariq	0,4	81,0	-	-	0,4	81,0
Pastdarg'om	2,4	69,1	0,8	57,8	1,6	76,8
Paxtachi	0,3	80,4	-	-	0,3	80,4
Samarqand	1,3	79,6	-	-	1,3	83,0
Nurobod	0,3	77,8	-	-	0,3	77,8
Urgut	1,3	83,5	-	-	1,3	83,5
Toyloq	10,9	84,1	9,7	84,4	1,2	81,7

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **118,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **82,1** % ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **15,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **41,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **103,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **95,5** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, foiz
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>118,8</b>	<b>82,1</b>
Samarqand sh.	71,992	72,3
Kattaqo'rg'on sh.	0,404	102,6
tumanlar:		
Oqdaryo	0,420	104,1
Bulung'ur	0,423	99,8
Jomboy	0,206	104,1
Ishtixon	0,266	98,7
Kattaqo'rg'on	0,173	104,1
Qo'shrabot	0,029	99,0
Narpay	0,339	100,0
Payariq	0,043	104,1
Pastdarg'om	0,023	104,1
Paxtachi	0,210	98,9
Samarqand	6,834	104,1
Nurobod	0,138	104,1
Urgut	0,004	104,1
Toyloq	37,288	104,2

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**72,0** mlrd. so'm), Toyloq (**37,3** mlrd. so'm) va Samarqand (**6,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **583,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **13,4 %** ga o‘sd.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **293,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **68,9 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **50,3 %** ni tashkil qildi.


## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (**3,5 b.**) va Samarqand (**722,2 b.**), Jomboy (**130,8 b.**), Pastdarg'om (**4,5 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 976** tani tashkil etib, 2022-yil 1-fevral holatiga nisbatan **479** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **118,9 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **41** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 935** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar oyiga nisbatan, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>583,0</b>	<b>113,4</b>	<b>289,8</b>	<b>3,3 m.</b>	<b>293,2</b>	<b>68,9</b>
Samarqand sh.	413,8	121,0	218,2	3,5 m.	195,6	70,0
Kattaqo'rg'on sh.	12,0	78,2	0,3	20,8	11,7	83,3
tumanlar:						
Oqdaryo	4,2	75,9	-	-	4,2	75,9
Bulung'ur	26,6	131,0	23,8	146,1	2,8	69,4
Jomboy	7,1	58,9	1,3	130,8 m.	5,7	47,8
Ishtixon	3,2	74,4	-	-	3,2	74,4
Kattaqo'rg'on	5,7	73,3	-	-	5,7	74,7
Qo'shrabot	0,8	86,1	0,017	0,0	0,8	84,4
Narpay	2,0	82,1	0,035	0,0	2,0	80,7
Payariq	2,3	75,6	-	-	2,3	75,6
Pastdarg'om	43,5	171,0	31,2	4,5 m.	12,3	66,7
Paxtachi	1,1	66,1	0,070	15,7	1,0	85,5
Samarqand	36,3	103,6	13,9	722,2 m.	22,5	64,1
Nurobod	3,2	82,7	0,016	0,0	3,2	82,3
Urgut	19,4	80,4	-	-	19,4	80,4
Toyloq	1,8	17,2	1,0	111,6	0,8	8,7



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 66-235-65-80**